



2018 yil iyul oyidagi holatga ko'ra

## Ish izlash maqsadida viza olishga kerakli hujjatlar haqida eslatma

Ushbu visa 3-chi davlatdan kelgan oliy ma'lumotga ega qiziqish bildirgan mutaxassislarga ko'pi bilan 6 oy davomida o'z kasbi bo'yicha ish qidirish maqsadida Germaniyaga safar qilish imkoniyatini beradi.

Mutaxassislar emigratsiyasi haqida umumiylar ma'lumotlarni [ushbu web-sahifadan](#) olishingiz mumkin.

**Viza olish uchun quyidagi hujjatlarni DIN A4 formatdagi ikkitadan nusxasi bilan taqdim etishingiz lozim:**

- fuqaro pasporti
- viza so'rovnoma (va **Chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq izoh** va arizachining undagi shaxsiy imzosi)
- mehnat faoliyati aks ettirilgan tarjimai hol, kasbiy ma'lumot haqidagi hujjatlar (attestat, diplomlar va boshqalar)
- oliy ma'lumot haqida Germaniya oliy o'quv yurti diplomi yoki Germaniya oliy o'quv yurti diplomiga mos keladigan Germaniyada tan olinadigan xorijiy diplom
- rejalashtirilgan ish qidirish maqsadidagi safarni asoslovchi xat (tarmoq, viloyat, rejalashtirilgan istiqomat qilish/yashash joyi va hokazo)
- agar mavjud bo'sa: ish qidirishga tayyorgarlik ko'rganingizni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Sizning horijiy diplomingiz tan olinishi yoki Sizning xorijiy diplomingiz Germanyaning qaysi diplomiga mos kelishini ANABIN ma'lumotlar bankining [www.anabin.kmk.org](http://www.anabin.kmk.org) web-sahifasiga so'rovnoma yuborish orqali bilib olishingiz mumkin.

Arizangiz bo'yicha ijobji qaror qabul qilinganidan so'ng, visa olishdan avval **Germaniyaga kelgandan to ish boshlagunga qadar bo'lgan vaqt oraligiga berilgan tubbiy sug'urta mavjudligini tasdiqlovchi hujjat** taqdim etishingiz lozim, agarda bunday hujjatni Siz avvalroq topshirmagan bo'lsangiz.

**Viza olish uchun barcha kerakli hujjatlarni topshirish lozimligiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz! Barcha kerakli hujjatlar topshirilmasa elchixona viza arizasini rad etishi mumkin.**

Tajribaga ko'ra, viza talabnomangizni ko'rib chiqish muddati 7-14 kunni tashkil etadi, biroq, ayrim hollarda ko'rib chiqish muddati yuqorida keltirilgan muddatdan farq qilishi mumkin.

Viza talabnomangiz bo'yicha qaror qabul qilinsa, elchixona Siz bilan bog'lanadi.

Rad javoblari (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin. Hujjatlarni ko'rib chiqish davrida ish holati bo'yicha hech qanday ma'lumot berilmaydi, hatto ish beruvchi yoki ish holatiga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarga ham.

**Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov hujjat topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida (amaldagi kursga muvofiq)** amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'imasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart..

Qo'shimcha ma'lumotlar va viza bo'limining qabul vaqtleri „[Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma](#)“ va „[Qabulga yozilish tizimi haqidagi eslatma](#)“ da ko'rsatilgan.

**Manzil:** 100017 Toshkent  
Sh. Rashidov ko'chasi, 15

**tel.:** +998 71 120 84 86  
**faks:** +998 71 120 84 80

**E-mail:** info@taschkent.diplo.de  
**Web-sahifa:** [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de)